



**SPECIFIC FEATURES OF NURSING CARE IN THE REHABILITATION
PROCESS OF PATIENTS AFTER SURGERY**

Zaripova Shabnam Rasul kizi

Student of the Public Health (OHI) Program, Faculty of Biomedicine, Bukhara State Medical
Institute named after Abu Ali ibn Sina, Bukhara, Uzbekistan.

Abstract

This article analyzes the role and importance of nursing care during the recovery period following surgical procedures. The primary focus of the research is directed toward monitoring vital signs, pain management, early mobilization, and the prevention of potential complications such as thrombosis, pneumonia, and pressure sores (bedsores). Additionally, the article highlights the nurse's role in improving the patient's psychological state and discusses deontological approaches. The theoretical and practical aspects of patient care in the postoperative period are also explored. Furthermore, the significance of nursing intervention in preventing complications, monitoring vital indicators, and its impact on the patient's psycho-emotional state are examined.

Keywords

Postoperative period, nursing care, rehabilitation, monitoring, prevention of complications, asepsis, patient safety.

**JARROHLIKDAN KEYINGI BEMORLARNI TIKLANISH JARAYONIDA
HAMSHIRALIK PARVARISHINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI**

Annotatsiya

Mazkur maqolada jarrohlik amaliyotidan keyingi davrda bemorning tiklanish jarayonida hamshiralik parvarishining roli va ahamiyati tahlil qilinadi. Maqolada asosiy e'tibor hayotning muhim ko'rsatkichini monitoring qilish, og'riqni boshqarish, erta mobilizatsiya va yuzaga kelishi mumkin bo'lgan asoratlarning (tromboz, pnevmoniya, yotoq yaralari) oldini olishga qaratilgan. Shu bilan birga bemorning ruhiy holatini yaxshilashda hamshiraning roli va deontologik yondashuvlari yoritilgan. Yana maqolada operatsiyadan keyingi davrda bemorni parvarish qilishning nazariy va amaliy jihatlari yoritilgan. Hamshiralik aralashuvining asoratlarni oldini olishdagi o'rni, hayotiy ko'rsatkichlar monitoringi va bemorning psixo-emotsional holatiga ta'siri ham ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar

Jarrohlikdan keyingi davr, hamshiralik parvarishi, reabilitatsiya, monitoring, asoratlar profilaktikasi, aseptika, bemor xavfsizligi.

Аннотация

В данной статье анализируется роль и значение сестринского ухода в период восстановления пациента после хирургических операций. Основное внимание в работе уделено мониторингу жизненно важных показателей, управлению болью, ранней мобилизации и профилактики возможных осложнений (тромбоз, пневмония, пролежни).



Наряду с этим освещается роль медицинской сестры и деонтологические подходы в улучшении психического состояния больного. Также в статье рассматриваются теоретические и практические аспекты ухода за пациентом в послеоперационный период. Рассматривается место сестринского вмешательства в предотвращении осложнений, мониторинг показателей жизнедеятельности и влияние на психоэмоциональное состояние пациента.

Ключевые слова

послеоперационный период, сестринский уход, реабилитация, мониторинг, профилактика осложнений, асептика, безопасность пациента.

Operatsiya tugallanib xirurgik bo'limdan uyga yuborilguncha va bemor o'z normal qobiliyatini tiklaguncha bo'lgan davrni operatsiyadan keyingi davr deb hisoblash mumkin. Xirurgik operatsiyaning natijasi ko'p jihatdan operatsiyadan keyingi davrda bemorlarni parvarish qilishda hamshiraning o'rni nihoyatta katta. Vrach ko'rsatmalarini to'g'ri , o'z vaqtida bajarish va bemorga g'amxo'rlik qilish uning tez sog'ayib ketishi uchun sharoit yaratadi.

Operatsiyadan keyingi davrda bemorda bir qancha o'zgarishlar sodir bo'lishi mumkin. Operatsiyadan keyingi davrning asosiy maqsadi - operatsiyadan keyingi davrda bemorda ro'y beradigan regeneratsiya va adaptatsiya jarayonlarining rivojlanishiga imkon yaratish, shu bilan birga yuzaga kelishi mumkin bo'lgan asoratlarning oldini olish, erta aniqlash hisoblanadi. Operatsiyadan keyingi davrning ahamiyati katta bo'lib, aynan o'sha davrda bemorga juda katta e'tibor va g'amxorlik kerak bo'ladi. Bu davrda bemorlarni parvarish qilish muhim bo'lib, ularning holatini doim kuzatish va monitoring qilish zarur hisoblanadi. Bu ish bemorning sog'ayishini tezlashtiradi. Bemorni kuzatishda nafas olish, yurak urushi va tana harorati kabi muhim ko'rsatkichlarni nazorat qilish kerak. Shu bilan birga og'riq darajasi ham hamshira tomonidan yozib boriladi. To'g'ri parvarish bilan bemorning tiklanish jarayoni yengillashadi, asoratlar ehtimoli kamayadi va bemorning umumiy holati tezda barqarorlashadi. Bemorni ehtiyotkorlik bilan parvarish qilish infeksiyalar oldini oladi. Bemorning temperatura va bosim ko'rsatkichlarini doimo nazorat qilish zarur, shu bilan birga og'riqni kamaytirishga yordam beradigan darmonlar berilishi lozim. Gigiyena qoidalariga to'g'ri amal qilish, fizioterapiya va to'g'ri ovqatlanish bemorning umumiy salomatligini tiklashga yordam beradi. Bu uzoq muddatli sog'liq uchun juda muhim.

Jarohatdan keyingi davrning bosqichlari:

1. Erta postoperasion davr(1-3 kun) - asoratlarni oldini olish va hayotiy ko'rsatkichlarning barqarorlashishi.

2. Kech postoperasion davr (3 kundan keyin) - tiklanish, reabilitatsiya va harakat faolligini oshirish.

Hamshiralik parvarishining o'ziga xos xususiyatlariga hayotiy ko'rsatkichlarni nazorat qilish, og'riqni kamaytirish, yara va drenajlarga parvarish, infeksiya profilaktikasi, asoratlarni oldini olish, ovqatlanish va ichak faoliyatini tiklash va psixologik qo'llab quvvatlash kabilar kiradi.

Operatsion yara parvarish qilishda aseptika va antiseptika qoidalariga qat'iy amal qilish infeksiya xavfini kamaytiradi. Drenajlar holatini nazorat qilish va ajralayotgan suyuqlik



miqdorini kuzatib borishda ham hamshiraning o'zni katta hisoblanadi. Bemorning psixo-emotsional holatiga e'tibor qaratish, uni ruhiy qo'llab quvvatlash va deontologik tamoyillarga rioya qilish tiklanish jarayoniga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Quyida jarrohlikdan keyingi hamshiralik parvarishining eng muhim jihatlarini tizimlashtirilgan holda taqdim etilgan:

1. Hayotik ko'rsatkichlarni monitoring qilish

Jarrohlikdan keyingi dastlabki soatlarda hamshira bemorning ahvolini uzliksiz kuzatib borishi shart. Bunga quyidagilar kiradi.

Arterial bosim, puls va nafas olish chastotasi: Har 15-30 daqiqada (holat barqarorlashguncha) o'lchanadi.

Tana harorati: Infeksiya yoki yallig'lanish jarayonini erta aniqlash uchun.

Teri rangi va namligi: Qon ketishi yoki shok belgilarini o'tkazib yubormaslik uchun.

2. Og'riqni boshqarish (Analgeziya)

Og'riqni kamaytirish nafaqat bemorga qulaylik yaratadi, balki sog'ayishni tezlashtiradi.

Shifokor buyurgan og'riq qoldiruvchi dorilarni vaqtida berish.

Og'riq darajasini maxsus shkalalar (masalan, 1 dan 10 gacha) yordamida baholash.

Nofarmakologik usullar: Bemorga qulay holat berish va xonada tinchlikni saqlash.

3. Operatsiyadan keyingi jarohat parvarishi

Jarohatning holati infeksiya tushmasligi uchun doimiy nazoratda bo'lishi kerak:

Bog'larning tozaligi va quruqligini tekshirish.

Drenajlar nazorati: Drenajdan kelayotgan suyuqlikning rangi, miqdori va hidini yozib borish.

Aseptika va antiseptika qoidalariga amal qilgan holda bog'larni almashtirish.

4. Asoratlarning oldini olish

Hamshiralik parvarishining asosiy maqsadi - kutilmagan muammolarni oldindan to'xtatish hisoblanadi.

O'pka asoratlari: Nafas olish mashqlari, bemorni erta harakatlantirish.

Yotoq yaralari: Bemorning holatini har 2 soatda o'zgartirib turish.

5. Psixologik qo'llab - quvvatlash

Operatsiyadan keyingi qo'rquv va tushkunlik sog'ayishga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Hamshira:

Bemor bilan xushmuomalalik bilan muloqot qilishi;



Muolajalarning mohiyatini batafsil tushuntirishi;

Bemorga o'ziga ishonch tuyg'usini uyg'o

Xulosa qilib aytganda, jarrohlikdan keyingi davrda hamshiraning roli faqat tibbiy manipulyasiyalar bilan cheklanmaydi. U bemorning jismoniy, puhiy va ijtimoiy holatini hisobga olib kompleks parvarishni amalga oshiradi. To'g'ri tashkil etilgan hamshiralik yordami asoratlarni kamaytiradi, tiklanishni tezlashtiradi va bemorning hayot sifatini yaxshilashga xizmat qiladi. Shunday qilib, jarrohlikdan keyingi davrda hamshiralik parvarishi kompleks va tizimli yondashuvni talab qiladi. Hayotiy ko'rsatkichlarni monitoring qilish, og'riqni boshqarish, erta mobilizasiya, asoratlarni oldini olish va psixologik qo'llab-quvvatlash tiklanish jarayoning samaradorligini oshirishi bilan birga bemor xavfsizligini ta'minlaydi. Shunday qilib jarrohlikdan keyingi tiklanish davri bemor salomatligini qayta tiklashda asosiy hal qiluvchi boshqich hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ibragimov O. M, Jamolov A. K, Mehmonqulova Sh. R, Hamroyeva Sh. E. Jarrohlik va reanimatsiyada hamshiralik ishi. [2022](#)
2. Oxunov A. A, Atakov S. S. Xirurgik bemorlar parvarishi. [2018](#)
3. Aripov U. A, Karimov Sh. I. Jarrohlik kasalliklari. [2018](#)
4. Tursunov Sh. T. Hamshiralik ishi asoslari. [2020](#)
5. Sidiqov B. S, Rahimova D. N. Klinik hamshiralik amaliyoti. [2019](#).